

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**



**«TASDIQLAYMAN»**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti  
rektori Sh.Sirojiddinov**

---

**25-avgust 2026-yil**

**10.00.01 – O‘zbek tili ixtisosligi  
bo‘yicha tayanch doktoranturaga  
kirish imtihoni dasturi**

**TOSHKENT – 2026**

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2026-yil 25-avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

**Tuzuvchilar: f.f.d., prof. S.Ashirboyev,  
f.f.d., prof. Z.Xolmanova,  
f.f.d., prof. M.Hakimova  
f.f.f.d., dots. M.Shamsiyeva**

## **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asari, shuningdek, "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'zbek tilini o'rganish, rivojlantirish va uning davlat tili sifatidagi nufuzini yuksaltirishga oid muhim fikr va qarashlar ilgari surilgan. Mazkur g'oyalar o'zbek tilini ilmiy jihatdan o'rganish, uning taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq etish hamda tilshunoslikning dolzarb masalalarini tadqiq etishda muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tili ixtisosligidan doktorantura imtihon dasturi o'zbek tilining shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti, hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlari, fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, morfemika va so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, stilistika, semasiologiya, pragmatlingvistika hamda matn lingvistikasi kabi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Dasturda o'zbek tilining milliy va ijtimoiy xususiyatlari, til va jamiyat munosabatlari, adabiy til me'yorlarining shakllanishi va rivojlanishi, o'zbek tilining funksional-uslubiy imkoniyatlari hamda zamonaviy tilshunoslikning nazariy va metodologik yondashuvlarini bilish darajasini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, doktorantning mustaqil ilmiy-tadqiqot olib borish, lingvistik hodisalarni ilmiy tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliy materiallar asosida asoslash va o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolariga ilmiy yondashish kompetensiyalari baholanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida o'zbek tilining jamiyatdagi nufuzi va mavqeyini yanada oshirish, o'zbek tilshunosligini rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish, globallashtirish jarayonlari sharoitida o'zbek tilidan foydalanish doirasini kengaytirish hamda o'zbek tili ixtisosligi bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash kabi muhim vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, o'zbek adabiyoti muammolarini ilmiy tadqiq etishni yangi bosqichga ko'tarish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan.

## **Metodologik masalalar**

O'zbekistonning til sohasidagi siyosati, jamiyat hayotida o'zbek tilining davlat tili maqomidagi o'rni va ahamiyati haqida. Respublika Prezidentining o'zbek tilining nufuzini oshirish, uni rivojlantirish borasida tilshunoslar, umuman, ziyolilar oldiga qo'ygan vazifalari va ko'rsatmalari. "Ona tili – bu millatning ruhi" iborasining mohiyati. Davlat tili, o'zbek lotin alifbosini joriy etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining mohiyati va ahamiyati haqidagi fikrlari. "Davlat tili" tushunchasi va davlat tilining jamiyatdagi o'rni masalasi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni (1989-yil 21-oktabr, 1995-yil 25-dekabr), uning mohiyati, Qonunning jamiyat hayotidagi va o'zbek tili rivojidagi ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonuni (1993-yil 2-sentabr, 1995-yil 6-may)ning mazmuni va ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi qarori (1995-yil 24-avgust), imlo qoidalari amaliyoti hamda uni yanada takomillashtirish borasidagi mulohazalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonidagi masalalar.

### **1-qism. O‘zbek tili tarixi va dialektologiyasi**

“O‘zbek tili tarixi” o‘zbek tilining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari va buning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zbek tili tarixini davrlashtirish masalalari, qadimiy turkiy til, eski o‘zbek tili, o‘zbek adabiy tili, ularning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan; o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va boyishida, uning funksional uslublari hamda me‘yorlari rivojida tarixiy yozma yodgorliklar tili, xalq lahja va shevalari hamda o‘zbek folklori tilining o‘rni va ahamiyatini belgilash va baholashga yo‘naltirilgan; ana shu shakllanish jarayonida o‘zbek mumtoz adabiyoti tilining, ayniqsa, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg‘ozixon, Ogahiy va boshqalarning asarlari tilining ahamiyatini ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘ygan. Shu bilan birga, o‘zbek tili turkiy tillar orasida eng ko‘p shevali tildir: unda qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga mansub yuzlab shevalar mavjud. O‘zbek dialektologiyasi (shevashunosligi) o‘zbek tilshunosligining mustaqil yo‘nalishi bo‘lib, o‘zbek shevalarini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi.

O‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha tuzilgan savollar imtihon topshiruvchi shaxsning o‘zbek dialektologiyasining maqsad va vazifalari, uning tadqiqot obyekti, tadqiq usullari, o‘zbek tili lahja va shevalarining lisoniy xususiyatlari yuzasidan bilim darajasini aniqlashni ko‘zda tutadi.

### **2-qism. O‘zbek tili tarixi**

O‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalasi. «Qadimgi turkiy til», «eski o‘zbek tili», «hozirgi o‘zbek tili» tushunchalari haqida.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili va uning o‘zbek tilining shakllanishidagi ahamiyati. XIII-XIV asrlarda O‘rta Osiyo va Oltin O‘rda hududlarida yaratilgan adabiy yodgorliklar tili va uning o‘zbek tiliga munosabati. XIV asr oxiri va XV asrning 1-yarmidagi o‘zbek adabiy tili va uning shakllanish manbalari.

Alisher Navoiy tilining dialektal asoslari. Alisher Navoiyning «Muhokamatul-lug‘atayn» asari va uning o‘zbek tili rivojidagi o‘rni.

«Muhokamatul-lugʻatayn» – tillarni qiyosiy oʻrganish namunasi sifatida. XVI asr oʻzbek adabiy tili rivojini oʻrganishda Bobur asarlarining ahamiyati.

XV-XIX asrlarda eski oʻzbek tili boʻyicha yaratilgan lugʻatlar va grammatik asarlarning oʻzbek tili tarixini oʻrganishdagi ahamiyati. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi oʻzbek adabiy tilining asosiy xususiyatlari.

Eski oʻzbek adabiy tilining funksional uslublari, ularning shakllanishi va taraqqiyoti. Oʻzbek tilida publitsistik uslubning paydo boʻlishi va shakllanishida oʻsha davr matbuoti tilining oʻrni. Oʻzbek milliy adabiy tili va uning shakllanish manbalari. Milliy tilning asosiy xususiyatlari. Oʻzbek tili tarixi masalalarining oʻrganilishida xorij turkiyshunoslarining xizmatlari.

Eski oʻzbek tilida unlilar tizimi. Eski oʻzbek tilida undoshlar tizimi. Eski oʻzbek tilida singarmonizm.

Eski oʻzbek tilida kelishiklar va ularning ifodalanish shakllari. Eski oʻzbek tilida sifat darajalari va ularning ifodalanish shakllari. Eski oʻzbek tilida tartib son va uning ifodalanish usullari. Eski oʻzbek tilida kishilik olmoshlari va ularning turlanishi. Eski oʻzbek tilida feʼl mayllari. Eski oʻzbek tilida feʼl zamonlari va ularning ifodalanish shakllari.

Eski oʻzbek tilining sintaktik xususiyatlari. Eski oʻzbek tilida gap boʻlaklari, gaplarning tuzilishi va tiplari.

### **3-qism. Oʻzbek dialektologiyasi**

*Oʻzbek dialektologiyasi.* Hozirgi oʻzbek adabiy tilining dialektal asoslari. Lahja, dialekt, sheva tushunchalari tavsifi. Til egasi va sheva egasi. Qarluq lahjasi va uning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari. Qipchoq lahjasi va uning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari. Oʻgʻuz lahjasi va uning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida qarluq, qipchoq va oʻgʻuz lahjalaridan har birining oʻrni. Oʻzbek shevalarini tasniflash masalasi (Gʻozi Olim, Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov). Oʻzbek shevalarining areal oʻrganilishi va tasnifi (A.Joʻrayev).

Oʻzbek shevalarida «o»lashish, uning yuzaga kelishi. Oʻzbek shevalarida unlilar va ularning adabiy tilga munosabati. Oʻzbek shevalarida undoshlar va ularning adabiy tilga munosabati. Oʻzbek shevalarida unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik (uchlamchi) choʻziqlilari. Oʻzbek shevalarida fonetik qonunlar (tovush mosligi, singarmonizm, umlaut).

Oʻzbek shevalarida egalik shakllari. Oʻzbek shevalarida koʻplik shakllari. Oʻzbek shevalaridagi kelishiklarning xususiyatlari. Oʻzbek shevalarida kishilik olmoshlarining kelishiklarda turlanishi. Oʻzbek shevalarida feʼning funksional shakllari (harakat nomi, ravishdosh, sifatosh). Oʻzbek shevalarida feʼning oʻtgan zamon shakllari. Oʻzbek shevalarida feʼning hozirgi va kelasi zamon shakllari. Oʻzbek shevalarida feʼning buyruq-istak mayli shakllari. Oʻzbek shevalarida yordamchi soʻzlar.

Oʻzbek shevalariga xos soʻz yasovchi qoʻshimchalar.

O'zbek shevalarining lug'aviy tarkibi va uning o'rganilishi. O'zbek adabiy tilining tayanch dialekti masalasi. O'zbek shevashunoslari.

*Areal lingvistika.* Areal lingvistika va lingvistik geografiya. Areal lingvistikaning paydo bo'lishi. Lingvistik areal va uning turlari. Izoglossa va unug turlari. Takson va taksonomiya. O'zbek tilining dialektal zonalari. O'zbekiston Respublikasida lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi. Mahmud Koshg'ariy va areal lingvistika.

#### **4-qism. Hozirgi o'zbek tili**

«Hozirgi o'zbek tili» kursi bo'yicha tuzilgan dastur va savollar imtihon topshiruvchining hozirgi o'zbek tili fonetikasi, morfemikasi va so'z yasalishi, morfologiyasi va sintaktik tuzilishi, grammatik kategoriyalari va ularning tasnifi, lug'aviy tizimi va uning tarkibi, boyish manbalari, imlosi va to'g'ri talaffuzi, uslubiyati va boshqalar haqidagi bilimlarini aniqlashni ko'zda tutadi.

O'zbek tilining lug'at tarkibi murakkab tizim va qatlamlardan iborat bo'lib, so'zlar ijtimoiy hayotning turli sohalarda qo'llanib, muayyan sohalarga funksional jihatdan moslashgan, tarmoqlangan bo'ladi. Mana shunday sohalardan biri ilm-fan sohasi bo'lib, unga xoslangan so'zlar terminlar hisoblanadi. Terminologiya bo'yicha tuzilgan savollarning maqsadi imtihon topshiruvchi shaxsning terminologiya, jumladan, o'zbek terminologiyasi bo'yicha bilim darajasini aniqlashdir. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqot olib borayotgan shaxslarning ilmiy terminologiya mohiyatini, asosiy lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini yaxshi bilishi, o'z sohasida terminlarni to'g'ri qo'llay olishi nihoyatda muhimdir. Aksincha, terminlarni noto'g'ri qo'llash ilmiy tushunchalarni to'g'ri tushunishga xalaqit beradi.

Nutq madaniyati va uslubshunoslik, imlo va to'g'ri talaffuz sohalari bo'yicha tuzilgan dastur-savollar haqida ham ayni shu fikrlarni aytish mumkin.

*Til strukturasi.* Lison va nutq. Lisoniy sath va lisoniy birliklar. Lisoniy sistema. Lisoniy tasnif. Lisoniy paradigma. Lisoniy munosabat. Lisoniy ziddiyat.

*Fonetika-fonologiya.* Fonema va tovush. Fonema ottentalari. Unli va undosh fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalari. O'zbek tili unli fonemalari va ularning tasnifi. O'zbek tili undosh fonemalari va ularning tasnifi. Bo'g'in turlari va o'zbek tilidagi ko'rinishlari. Urg'u turlari va o'zbek tili urg'usi. Fonetik o'zgarishlar va ularning fonologik asoslari. Adabiy talaffuz (orfoepiya) me'yorlari. Hozirgi o'zbek tilida imlo tamoyillari. Orfografiya asoslari. Lotin yozuviga asoslangan hozirgi o'zbek alifbosining xususiyatlari.

*Leksikologiya.* Leksema va so'z, ularning xususiyatlari. Leksema nom va ma'no munosabati. Leksik ma'no va tushuncha. Leksik ma'noning tarkibi: sema va uning turlari. Leksik ma'no taraqqiyoti va natijalari. Leksema ma'nosining torayishi va kengayishi. Polisemiya, uni vujudga keltiruvchi omillar. Nom ko'chish usullari: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik. Kognitiv metafora.

O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar. O'zbek tilida leksik-semantik paradigmatic munosabatlar. Sinonimiya. Antonimiya. Antisemiya. Darajalanish

munosabati. Jins-tur munosabati. Butun-bo‘lak munosabati. Omonimiya. Partonimiya.

Qo‘llanilish doirasi chegaralangan leksika. Qo‘llanilish davri chegaralangan leksika. Ifodaviylik va uslubiy xoslanganlik jihatidan o‘zbek tili leksikasi. O‘zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. So‘z o‘zlashtirish.

Frazeologiya. Frazema. Frazeologik ma‘no, uning turlari. Frazeologik-semantik munosabatlar. Perifraza. Perifrazalarning turlari, tarkibi, uslubiy xususiyatlari.

Leksikologiya va leksikografiya. Leksikografiya turlari. Lug‘at turlari. Til korpusi. Giperleksikografiya.

*Terminologiya.* Termin va terminologiya tushunchalari haqida. Terminga qo‘yiladigan asosiy talablar. Terminologiyada omonimiya va sinonimiya hodisalari, polisemiya munosabat. Terminlarni me‘yorlash tamoyillari.

Terminologiya va purizm. Ilmiy terminologiya va xalq terminologiyasi. Terminologik lug‘atlar va ularni tuzish prinsiplari.

Terminologik tizimlarni tasniflash asoslari. O‘zbek tili terminologik tizimlari boyishining ichki va tashqi imkoniyatlari. Mustaqillik davri o‘zbek terminologiyasi: taraqqiyoti va muammolari.

*Onomastika.* Onomastika sohasi va uning tadqiqot obyekti. Onomastika leksikologiyaning bo‘limi sifatida. O‘zbek antroponimiyasi va uning xususiyatlari. Atoqli otlarning tiplari va o‘ziga xos xususiyatlari. Etnonimiya haqida tushuncha va o‘zbek etnonimlari. Toponimika – tilshunoslikning bo‘limi sifatida. Toponimlarning tarkib topishida nolisaniy omillarning roli. O‘zbek toponimiyasining o‘rganilish darajasi. Mustaqillik davrida toponimlarni tartibga solish borasida olib borilayotgan ishlar.

*Morfemika.* O‘zbek tilida affiksial morfemalarning turlari. Qo‘shma so‘zlar va ularning so‘z birikmalaridan asosiy farqlari.

O‘zbek tilida lug‘aviy va grammatik ma‘no, ularning grammatik kategoriyalarga munosabati. O‘zbek tilida shakl yasovchi qo‘shimchalar va ularning turlari. Lug‘aviy shakl yasovchilar. Sintaktik shakl yasovchilar.

*Derivatsiya.* O‘zbek tilida so‘z yasash usullari. So‘z yasash qoliplari. So‘z yasalishi va leksemalashuv. Diaxron va sinxron derivatsiya. Derivatsiya, transpozitsiya, konversiya va polifunksionallik.

*Morfologiya.* O‘zbek tilida so‘z turkumlarining ajratilishi. So‘zlarni turkumlarga ajratish asoslari. O‘zbek tilida fe‘lning grammatik kategoriyalari. Nisbat kategoriyasi. Bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi. O‘zgalovchi kategoriya. Harakat tarzi kategoriyasi. Fe‘lda kesimlik kategoriyasining qo‘llanilishi. Inkori ifodalovchi vositalar va fe‘lning bo‘lishsizlik shakllari. Yordamchi fe‘l va uning turlari. To‘liqsiz fe‘l.

Otning grammatik kategoriyalari. Sifat va uning daraja kategoriyasi. Ravish va uning turlari. Sonning ma‘noga ko‘ra turlari. Olmosh va uning turlari. Taqlid so‘zlar.

Egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, mayl (modallik) kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi.

O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari, ularning vazifaviy xususiyatlari.

O'zbek tilida semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar: taklif-ishora, tasdiq-inkor, modal va undovlar.

*Sintaksis.* O'zbek tilida sintaktik birliklarning turlari (so'z birikmasi, gap, matn) va ularning o'zaro munosabati. Sintaktik aloqa turlari. So'z birikmalari. Aniq va majhul tuzilmalar (faol va nafaol konstruksiyalar). So'z birikmasi qoliplari.

Sodda gap va uning lisoniy qoliplari. O'zbek tilida sodda gapni tasniflash asoslari. Gap turlari: darak, so'roq, buyruq gaplar; sodda va qo'shma gaplar; yig'iq va yoyiq gaplar; tasdiq va inkor gaplar; to'liq va to'liqsiz gaplar, egali va egasiz gaplar.

Sodda gapning grammatik bo'linishi. Gap bo'laklari nazariyasi: bosh va ikkinchi darajali bo'laklar; gap va so'z kengaytiruvchilari; subyekt, predikat, obyekt tushunchalari.

Sodda gapning murakkablashuvi. O'zbek tilida uyushiq va ajratilgan bo'laklar. Undalma. Kirish va kiritma tuzilmalar.

Uyushgan gap tushunchasi va uning ajratilishi. Uyushgan gap o'zbek tilining milliy xususiyati sifatida.

Sodda gaplarda shakl va mazmun nomutanosibligi va uning tadqiqi. Sodda gapning aktual bo'linishi: aktuallashtiruvchi vositalar. Sodda gaplarda so'z tartibi. Inversiya.

Qo'shma gap va uning qoliplari. O'zbek tilida qo'shma gaplarni tasniflash asoslari. Qo'shma gap turlari.

Teng, tobe va mutanosib tarkibli qo'shma gaplar tushunchasi va ularning ajratilishi. Bog'langan, bog'lovchisiz, ergash gaplar tushunchasi va ularning ajratilishi. Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra turlari. Qo'shma gapning tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatga ko'ra turlari. Qo'shma gapning qismlari orasidagi funksional munosabatlarga ko'ra turlari. O'zga gap va uni ifodalash yo'llari.

*Punktuatsiya.* Punktuatsiya tarixi va taraqqiyoti. Hozirgi o'zbek tilida punktuatsiya muammolari.

O'zbek tilida murakkab sintaktik butunlik tushunchasi va uning ajratilishi. Matn va uning tadqiqi muammolari. Matn tahlili. Matnga antroposentrik yondashuv.

*Nutq madaniyati.* Adabiy til tushunchasi. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari. Adabiy me'yor tushunchasi. Adabiy me'yor turlari. Adabiy tilning lahja va shevalar bilan o'zaro munosabati. O'zbek adabiy tilining dialektal asoslari.

Adabiy til va nutq madaniyati. Nutq madaniyati – tilshunoslik bo'limlaridan biri sifatida. Nutq madaniyati sohasining tadqiqot obyekti.

*Uslubshunoslik* (stilistika) sohasi va uning tadqiqot obyekti. O'zbek uslubshunosligining o'rganilish darajasi. O'zbek tilining funksional uslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy matnning asosiy xususiyatlari. Lingvopoetika haqida tushuncha. Lug'aviy stilistika.

## **10.00.01-«O‘zbek tili» ixtisosligi bo‘yicha kirish imtihon dasturi yuzasidan o‘qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar**

### ***a) metodologik adabiyotlar:***

1. Мирзиёев Ш.М. «Эркин ва фаравон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз». Ўзбекистон НМИУ, 2016. Тошкент.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги қонуни (1989 йил 21 октябрь; янги таҳрири – 1995 йил 21 декабрь).
3. Ўзбекистон Республикасининг «Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида»ги қонуни (1993 йил 2 сентябрь; янги таҳрири – 1995 йил 6 май).
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбек тилининг асосий имло қоидалари»ни тасдиқлаш ҳақида»ги 339-сонли қарори (1995 йил 24 август).
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 13 майдаги ПФ-4797-сонли «Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университетини ташкил этиш тўғрисида»ги Фармони / «Халқ сўзи» газетаси. –2016 йил. –14 май.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони / [lex.uz/docs/4561730](http://lex.uz/docs/4561730)
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сонли «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони / [lex.uz/pdfs/5058351](http://lex.uz/pdfs/5058351)

### ***б) ilmiy adabiyotlar:***

8. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Т., 1992.
9. Абдурахмонов Ғ. Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т., 2009.
10. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Т.: Nodirabegim, 2021.
11. Ashirboyev S. Areal lingvistika. – Т.: Bookmany Print, 2023.
12. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. – М., 1951.
13. Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. - Т., 1992.
14. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Т., 2002.
15. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т., 1992.
16. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Т., 1995.
17. Санакулов У., Насриддинзода Б. Қадимги ёзувлар ва эски ўзбек алифбоси. – Т., 1990.

18. Турсунов У., Мухторов Ж. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 1965, 1990.
19. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т., 1982.
20. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. – Т., 1996.
21. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Т., 2007.
22. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Т., 2010.
23. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zME, 2013.
24. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Т., 2010.
25. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
26. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
27. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. - Т.: Universitet.

***в) o‘zbek tili sohalari bo‘yicha qo‘shimcha adabiyotlar:***

28. Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили. – Т., 2004.
29. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Т., 1994.
30. Бегматов Э. Маматов А. Адабий норма назарияси. 1-3-қисмлар. – Т., 1997-1999.
31. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. - Т., 1995.
32. «Давлат тили ҳақида» (Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги қонуни матнлари, қонуности ҳужжатлар, қонунни амалга ошириш йўлидаги муаммо ва ечимлар) (тузувчи – Н. Жумахўжа.). – Т., 2008.
33. Джамалханов Х. Основой узбекской графики. – Т., 1991.
34. Дўсимов З., Тиллаева М. Топонимика асослари. – Т., 2002.
35. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Т., 2009.
36. Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Т., 2007.
37. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Т., 1990.
38. Йўлдошев Б., Қурбонов Т. Бадиий асар тили ва услуби масалалари. - Самарқанд, 2004.
39. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. - Т., 2007.
40. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Т., 2008.
41. Лутфуллаева Д.Э. Гапни семантик-синтактик қолиплаштириш муаммолари. - Т., 2005.
42. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Т., 1990.
43. Маматов А.Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммоси. - Т., 1991.
44. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. - Т., 2007, 2009.

45. Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомия терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Т., 2010.
46. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. - Т., 2000.
47. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Т., 2010.
48. Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи. - Т., 1995.
49. Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. - Т., 1992.
50. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. - Т., 2006.
51. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. - Т., 2008.
52. Рустамов Т. Соф кўмакчилар. - Т., 1991.
53. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. - Т., 1990.
54. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. - Т., 1966.
55. Худойберганава Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Т., 2011.
56. Юсуфов Б. Местоимения в староузбекском языке. - Т., 1991.
57. Ўзбек шевалари лексикаси. - Т., 1991.
58. XV-XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. - Т., 1990.
59. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. - Т., 1992.
60. Қиличев Э, Қиличев Б. Нутқ маданияти ва услубият асослари. - Бухоро, 2002.
61. Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (соғда гап синтаксиси). - Т., 2002.

### **Baholash mezonlari**

Kirish sinovi og‘zaki ravishda o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga bergan javobi quyidagicha baholanadi:

| <b>Har bir savol uchun ball</b> | <b>Javobga qo‘yiladigan talablar</b>                                                                                                                                                                                                                                                          |
|---------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 86-100                          | Qo‘yilgan savolga to‘liq javob bergan.<br>Nazariy jihatlarini yoritishda xatolik va chalkashlikka yo‘l qo‘yilmagan.<br>Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan.<br>Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan.<br>Xulosani to‘g‘ri shakllantirgan.<br>Fikrlar erkin bayon etilgan. |
| 71-85                           | Savolning mohiyatini tushungan.<br>Javobni yoritib bera olgan.<br>Amaliy misollar keltirilgan.<br>Tasavvurga ega.<br>Qisqacha xulosa bergan.<br>Fikrlarni sodda bayon etgan.                                                                                                                  |
| 55-70                           | Savol mohiyatini tushungan.                                                                                                                                                                                                                                                                   |

|      |                                                                                                                  |
|------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|      | Javob yoritilgan, qisqa shaklda.<br>Misollar bilan asoslanmagan.<br>Xulosa qilingan.                             |
| 0-54 | Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan yoki umuman yoritilmagan.<br>Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas. |

## NAMUNAVIY SAVOLLAR

1. O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalasi.
2. «Qadimgi turkiy til», «eski o'zbek tili», «hozirgi o'zbek tili» tushunchalari haqida.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari.
4. Qarluq lahjasi va unga mansub shevalar.
5. Qipchoq lahjasi va unga mansub shevalar.
6. O'g'uz lahjasi va unga mansub shevalar.
7. Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalaridan har birining o'rni va ahamiyati.
8. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili va uning o'zbek tilining shakllanishidagi ahamiyati. XIII-XIV asrlarda O'rta Osiyo va Oltin O'rda hududlarida yaratilgan adabiy yodgorliklar tili va uning o'zbek tiliga munosabati.
9. O'zbek shevalarini tasniflash muammolari (G'ozli Olim, Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov).
10. XIV asr oxiri va XV asrning 1-yarmidagi o'zbek adabiy tili va uning shakllanish manbalari.
11. O'zbek shevalarida «o»lashish, uning yuzaga kelish sababi va genezisi.
12. O'zbek shevalarida unlilar va ularning adabiy tildagi unlilardan sifat va miqdor jihatidan farqlanishi.
13. Alisher Navoiy tilining dialektal asoslari.
14. Alisher Navoiyning «Muhokamatul-lug'atayn» asari va uning o'zbek tili rivojidagi o'rni.
15. «Muhokamatul-lug'atayn» – tillarni qiyosiy o'rganish namunasi sifatida.
16. O'zbek shevalarida undoshlar va ularning adabiy tildagi undoshlardan sifat va miqdor jihatidan farqlanishi.
17. XVI asr o'zbek adabiy tili rivojini o'rganishda Bobur asarlarining ahamiyati.
18. O'zbek shevalarida egalik kategoriyasi.
19. O'zbek shevalarida ko'plik kategoriyasi.
20. O'zbek shevalarida kelishiklar.
21. XV-XIX asrlarda eski o'zbek tili bo'yicha yaratilgan lug'atlar va grammatik asarlarning o'zbek tili tarixini o'rganishdagi ahamiyati.

22. O'zbek shevalarida so'z yasalishi; so'z va shakl yasovchilar.
23. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tilining asosiy xususiyatlari.
24. O'zbek shevalarining lug'aviy tarkibi va uni o'rgangan o'zbek shevashunoslari.
25. Termin va terminologiya tushunchalari haqida. Terminga qo'yiladigan asosiy talablar.
26. Terminologiyada omonimiya va sinonimiya hodisalariga, polisemiyaga munosabat. Terminlarni me'yorlash tamoyillari. Terminologiya va purizm.
27. Eski o'zbek adabiy tilining funksional uslublari, ularning shakllanishi va taraqqiyoti.
28. O'zbek tilida publitsistik uslubning paydo bo'lishi va shakllanishida o'sha davr matbuoti tilining o'rni.
29. O'zbek milliy adabiy tili va uning shakllanish manbalari. Milliy tilning asosiy xususiyatlari.
30. Eski o'zbek tilida sifat. Sifat darajalari va ularning ifodalanish shakllari.
31. Terminologik tizimlarni tasniflash asoslari. O'zbek tili terminologik tizimlari boyishining ichki va tashqi imkoniyatlari.
32. Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi: taraqqiyoti va muammolari.
33. Onomastika sohasi va uning tadqiqot obyekti. Onomastika leksikologiyaning bo'limi sifatida.
34. O'zbek antroponimiyasi va uning xususiyatlari. Atoqli otlarning tiplari va o'ziga xos xususiyatlari.
35. Eski o'zbek tilida kishilik olmoshlari va ularning turlanishi.
36. O'zbek shevalarida fe'l zamonlari.
37. Eski o'zbek tilida unlilar tizimi
38. O'zbek shevalarida ko'makchilar.
39. Til – sistemalar sistemasi sifatida.
40. Eski o'zbek tilida kelishiklar va ularning ifodalanish shakllari.
41. Yozuvning rivojlanish bosqichlari. O'zbek xalqi foydalangan yozuvlar.
42. Toponimika – tilshunoslikning bo'limi sifatida. Toponimlarning tarkib topishida nolisoniy omillarning roli. O'zbek toponimiyasining o'rganilish darajasi.
43. Mustaqillik davrida toponimlarni tartibga solish borasida olib borilayotgan ishlar.
44. Sintagmatika va paradigmatika.
45. Eski o'zbek tilining sintaktik xususiyatlari. Eski o'zbek tilida gap bo'laklari, gaplarning tuzilishi va tiplari.
46. O'zbek shevalarida fe'l zamonlari.
47. Eski o'zbek tilida undoshlar tizimi.
48. Eski o'zbek tilida singarmonizm.
49. Eski o'zbek tilida sifat darajalari va ularning ifodalanish shakllari.
50. Eski o'zbek tilida tartib son va uning ifodalanish usullari.
51. Lingvistik metodlar.

52. Adabiy til va nutq madaniyati. Nutq madaniyati – tilshunoslik bo‘limlaridan biri sifatida. Nutq madaniyati sohasining tadqiqot obyekti.
53. Eski o‘zbek tilida fe‘l zamonlari va ularning ifodalanish shakllari.
54. Til – belgilar tizimi.
55. Uslubshunoslik (stilistika) sohasi va uning tadqiqot obyekti. O‘zbek uslubshunosligining o‘rganilish darajasi.
56. O‘zbek tilining funksional uslublari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
57. Badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari. Badiiy matnning asosiy xususiyatlari.
58. Til sathlari va uning birliklari.
59. Lingvopoetika haqida tushuncha.
60. Eski o‘zbek tilida fe‘l mayllari.
61. Eski o‘zbek tilining sintaktik xususiyatlari. Eski o‘zbek tilida gap bo‘laklari, gaplarning tuzilishi va tiplari.
62. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining o‘rganilish tarixi va bosqichlari.
63. Hozirgi o‘zbek adabiy tili va uning shevalarga munosabati.
64. Til, lison va nutq munosabati.
65. Lisoniy va nutqiy birliklar.
66. Til sathlari va birliklari.
67. Lisoniy paradigma va uning turlari.
68. Hozirgi o‘zbek tilida lisoniy munosabatlarning turlari: paradigmatic munosabat.
69. Hozirgi o‘zbek tilida lisoniy munosabatlarning turlari: sintagmatic munosabat.
70. Paradigmatic munosabatlarda lisoniy ziddiyatlar.
71. O‘zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari.
72. Fonetikaning turlari, ularning maqsad va vazifalari.
73. O‘zbek nutq tovushlarining fizik-akustik aspekti.
74. Unli fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, unli fonemalarni tasniflash asoslari.
75. Undosh fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, undosh fonemalarni tasniflash asoslari.
76. Fonemalararo lisoniy ziddiyatlarning voqelanishi.
77. Fonema ottenkalari.
78. Unli va undosh fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalari.
79. Fonetik o‘zgarishlar va ularning fonologik asoslari.
80. Bo‘g‘in turlari va o‘zbek tilidagi ko‘rinishlari.
81. Fonetik o‘zgarishlar va ularning fonologik asoslari.
82. Adabiy talaffuz (orfoepiya) me‘yorlari.
83. Hozirgi o‘zbek tilida imlo tamoyillari.
84. Orfografiya asoslari.
85. Lotin yozuviga asoslangan hozirgi o‘zbek alifbosining xususiyatlari.

86. Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi. Leksema leksik sath birligi sifatida. Leksema va soʻz, ularning xususiyatlari.
87. Leksemada nom va maʼno munosabati.
88. Leksik maʼno. Leksik maʼno va tushuncha. Leksik maʼnoning tarkibi.
89. Semema. Sema va uning turlari. Semik tahlil.
90. Leksik maʼnoning turlari. Uzual va okkazonal maʼno. Nutqiy maʼno.
91. Leksik maʼno taraqqiyoti. Leksema maʼnosining torayishi va kengayishi.
92. Maʼnoning miqdoriy oʻzgarishlari. Hosila maʼno vujudga kelish usullari: metafora va vazifadoshlik; metonimiya va sinekdoxa.
93. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.
94. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati va ularning yuzaga kelishi.
95. Oʻxshatishlar – obrazli madaniy tafakkur mahsuli. Metafora – madaniyatning koʻrsatkichi.
96. Ramz – inson ruhi madaniyatining tili. Milliy madaniyatning stereotiplari. Lingvomadaniyatda lakuna muammosi
97. Monosemiya va polisemiya. Polisemiya va uning yuzaga kelish sabablari.
98. Oʻzbek tilida sinonimiya, uni yuzaga keltiruvchi omillar, turlari.
99. Oʻzbek tilida antonimiya, turlari, yondosh hodisalardan farqlash.
100. Graduonimiya va bu boradagi tadqiqotlar sharhi.
101. Oʻzbek tilida shakliy munosabatlar: omonimiya, partonimiya.
102. Omonimiya, yuzaga kelish sabablari, yondosh hodisalardan farqlash.
103. Polisemiya va omonimiya munosabati.
104. Leksik maʼno turlari. Okkazonal va uzual maʼno.
105. Qoʻllanish doirasiga koʻra hozirgi oʻzbek tili leksikasi: dialektal, maxsus, jargon, argo, sleng, tabu.
106. Leksemalarning nafaol zaxiraga oʻtishi yoki eskirgan leksemalarning yangi maʼno kasb etishi. Ularni yuzaga keltiruvchi omillar.
107. Qoʻllanilish doirasi chegaralangan leksika.
108. Qoʻllanilish davri chegaralangan leksika. Oʻzbek tilining mustaqillik davri rivoji: neologizmlar.
109. Ifodaviylik va uslubiy xoslanganlik jihatidan oʻzbek tili leksikasi.
110. Oʻzbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti. Soʻz oʻzlashtirish.
111. Oʻzbek tili frazeologiyasi. Frazema. Frazeologik maʼno, uning turlari.
112. Frazeologik-semantik munosabatlar.
113. Perifraza. Perifrazalarning turlari, tarkibi, uslubiy xususiyatlari.
114. Leksikografiya. Lugʻat turlari va tiplari. Lugʻat maqolalarining joylashtirilish tartibi va sxemasi.

115. O'zbek tilida so'z yasash usullari. So'z yasash qoliplari.
116. O'zbek tilida so'z yasalashi va leksemalashuv. Diaxron va sinxron derivasiya
117. O'zbek tilida affiksial morfemalarning turlari.
118. Qo'shma so'zlar va ularning so'z birikmalaridan asosiy farqlari.
119. Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari.
120. Derivatsiya, transpozitsiya, konversiya va polifunksionallik.
121. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar
122. Hozirgi o'zbek tilida so'z turkumlari. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari, mustaqil so'z turkumlari, xususiyatlari, tiplari.
123. O'zbek tilida fe'lning grammatik kategoriyalari.
124. O'zbek tilida fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi.
125. O'zbek tilida fe'lning harakat tarzi kategoriyasi.
126. O'zbek tilida fe'lning kesimlik kategoriyasi.
127. Fe'lning lug'aviy-grammatik guruhlari.
128. Ot so'z turkumi. Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Otning nokategorial shakllari.
129. Sifat. Asliy va nisbiy sifatlar, daraja kategoriyasi.
130. Hozirgi o'zbek tilida son so'z turkumi va uning lug'aviy-grammatik guruhlari, numerativlar.
131. Hozirgi o'zbek tilida ravish so'z turkumi.
132. Ravish, lug'aviy-grammatik guruhlari.
133. Taqlid so'zlar, lug'aviy-grammatik guruhlari.
134. Olmosh va uning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, olmoshlarning matndagi o'rni, sintaktik imkoniyatlari.
135. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar. Egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, mayl (modallik) kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi.
136. Hozirgi o'zbek tilida yordamchi so'zlar.
137. Hozirgi o'zbek tilida so'z-gaplar.
138. Sintaksis. Sintaktik birliklar: so'z birikmasi va gap.
139. O'zbek tilida lisoniy sintaktik qolip va uning turlari: so'z birikmasi qoliplari va gap qoliplari, ularning qurilish xususiyatlari.
140. Valentlik va sintaktik aloqa.
141. So'z birikmasi qoliplarida erkin birikuv omillari: ma'noviy, shakliy va joylashuv omilari.
142. So'z birikmasida tobe aloqaning turlari: moslashuv, boshqaruv, bitishuv aloqalari. Birikmalarda sintaktik aloqani ta'minlovchi vositalar.
143. Sodda gapda shakl va mazmun. Propozitsiya va uning ifodalanishi. Sodda gap tasnifi masalasi.
144. Sodda gapning lisoniy va nutqiy xususiyatlari. Sodda gap qolipi va uning turlari.

145. Gapning grammatik bo‘laklari. Gapning kommunikativ yoki aktual bo‘linishi. Tema-rema tushunchalari. Gap markazi. Gap va so‘z kengaytiruvchilari.
146. Gap bo‘laklari. Gap bo‘laklarida darajalanish (kesim – ega – hol – to‘ldiruvchi – aniqlovchi).
147. Kesim – gap markazi va uning uyushtiruvchisi. Eganing gap qurilishidagi o‘rni. Egali va egasiz gaplar, ularning tasnifi. Eganing ifodalanishi.
148. Holning gap qurilishidagi o‘rni, ma’naviy turlari, ifodalanishi.
149. To‘ldiruvchining gap qurilishida so‘z kengaytiruvchisi sifatidagi o‘rni, ifodalanishi. To‘ldiruvchining turlari.
150. Aniqlovchining gap qurilishidagi o‘rni, ifodalanishi. Aniqlovchining turlari.
151. Ajratilgan bo‘laklar, uyushiq bo‘laklar, undalma, kirish va kiritmalar.
152. Murakkablashgan sodda gapning lisoniy sintaktik qolipi.
153. Uyushgan gapning lisoniy-sintaktik qolipi, turlari, nutqiy voqelanishi
154. Qo‘shma gap tasnifi masalasi. An’anaviy va zamonaviy tasnif asoslari.
155. Qo‘shma gapning qurilishiga ko‘ra turlari: teng munosabatli, tobe munosabatli, mutanosib munosabatli qo‘shma gaplar.
156. Qo‘shma gapning tarkibidagi bog‘lovchi vositalariga ko‘ra turlari: faqat ohang vositasida, yuklamalar vositasida, teng bog‘lovchilar vositasida, ergashtiruvchi bog‘lovchilar vositasida, nisbiy so‘zlar vositasida bog‘langan qo‘shma gap.
157. Murakkab qo‘shma gap turlari. Ko‘chirma va o‘zga gapli qurilmalar, ularning turlari, lisoniy xususiyatlari, nutqiy voqelanishi.
158. Tinish belgilarining matndagi vazifasi. Tinish belgilarining qo‘llanilishi.
159. Tilshunoslikdagi eng yangi yo‘nalishlar.
160. Til va madaniyat munosabati.
161. O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonuni (1993 -yil 2- sentabr, 1995-yil 6-may) ning mazmuni va ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ni tasdiqlash haqida»gi qarori (1995-yil 24-avgust), imlo qoidalari amaliyoti hamda uni yanada takomillashtirish borasidagi mulohazalar.
162. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF5850-sonli «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2020-yil 20-oktabrdagi PF6084-sonli «Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonidagi masalalar.
163. Tilni tadqiq qilishning zamonaviy yo‘nalishlari. Antrosentrik tilshunoslik.

164. Matn va uning tadqiqi muammolari. Matn tahlili. Matnga antroposentrik yondashuv.
165. Matnda sintaktik aloqani ta'minlovchi leksik vositalar. Matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishidagi omillar (leksik takror; sinonimik munosabat; olmoshlar; kirish so'z va birikmalar; bog'lovchilar).
166. Matn komponentlarining semantik va pragmatik munosabatlari.
167. Matn komponentlarining pog'onali munosabati, matn komponentlari o'rtasidagi semantik va grammatik munosabatlarning turi va ularning yuzaga chiqishi.
168. Matn tarkibida ichki va tashqi sintagmatik munosabatlar.
169. Badiiy matn va uni shakllantiruvchi vositalar. Badiiy matnning ko'rinishlari, ularning umumiy va farqli belgilari, badiiy matnda individual so'z qo'llash me'yorlari.
170. O'zbek badiiy matnida metafora, epitet va o'xshatish tasviriy vositalarining qo'llanishi. Matn tilshunosligida kognitiv va pragmatolingvistik imkoniyatlardan foydalanish. "Kognitiv, konsept, ssenariy, skript, freym, geshtalt, pragmatika" tushunchalarining ma'no-mohiyati va ularning matn bilan aloqadorligi.
171. Diskurs lisoniy, shaxsiy va vaziyat omili muvofiqlashgan sistema ekanligi. Diskursning turlari. Diskursning tasnifi. Diskursiv tahlil tarixi.
172. Nutqiy vaziyat. Qulay vaziyat. Noqulay vaziyat. Erkin vaziyat. Rasmiy vaziyat. Vaziyat va lison. Vaziyat va nutq. Nutq samarasi va vaziyat muvofiqligi.
173. Lisoniy kompetensiya. Madaniy kompetensiya. Pragmatik kompetensiya.
174. Kommunikatsiya. Kommunikativ intensiya. Intensiya ifodasi. Intensiya mo'ljali. Intensiyaning ifodalovchi fe'llarning kuchi va intensivligiga ko'ra turlari. Lokutiv fe'llar. Perlokutiv fe'llar. Illokutiv fe'llar.
175. Psixolingvistika va tilshunoslik. Individ va kommunikatsiya. Psixolingvistikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Psixolingvistikaning psixologik va lingvistik manbalari.
176. Nutqiy muoamala. Bilingvizm va uning turlari.
177. Xorijliklar nutqi. Madaniy shok. Lingvistik shok. Madaniyatlararo muloqot.
178. Nutq patologiyasi va uning psixolingvistik usullar asosida o'rganilishi. Nutq patologiyasini asosiy ko'rinishlari.
179. Afaziya va uning turlari. Total afaziya. Qisman afaziya. Motor afaziya. Sensor afaziya. Akustik afaziya. Semantik afaziya.
180. Alaliya va uning ko'rinishlari. Sensor alaliya. Motor alaliya. Sensomotor alaliya.
181. Lisoniy shaxs strukturasi. Olamning lisoniy manzarasi. Geshtaltlar va belgilar.
182. "Lakuna" tushunchasi. Lakunalarning turlari. Ijtimoiy-madaniy lakunalar. Lakunalarni bartaraf qilish yo'llari.